

# CEFR imtihoni: o‘tkazilish tartibi, to‘lov va O‘zbekistonda qayerda topshiriladi?



**CEFR** — **Common European Framework of Reference** imtihoni Yevropa Ittifoqida foydalaniladigan chet tilini egallaganlik daraja tizimi (chet tilini egallanganlikning Umumevropa kompetensiyasi). Imtihon Yevropa Kengashi tomonidan “Language Learning for European Citizenship” loyihasi doirasida 1989-1996-yillarda ishlab chiqilgan. CEFRning asosiy maqsadi – umumiy Yevropa tillari uchun qabul qilinadigan baholash va o‘qitish usulini taqdim etish. 2001-yildan boshlab Yevropa Ittifoqi imtihondan til bilish kompetensiyasining milliy tizimini yaratishda CEFRdan foydalanishni taklif etdi. Bugungi kunda sinov sertifikatini AQSH, Kanada, Avstraliya, Yevropa, Osiyo oliy o‘quv yurtlarida o‘qish uchun topshiriladi.

## **CEFR haqida qisqacha:**

**Til** – ingliz, nemis, fransuz tili;

**Tashkilotchi** – Yevropa Kengashi (Council of Europe);

**Rasmiy sayt** – <https://www.coe.int>;

**Imtihon haqi** – 2018-yilning 1-noyabridan sertifikat – 304 095 so‘m;

**Davomiyligi** – 3 soat 5 daqiqa – 3 soat 50 daqiqa;

**Baholanishi** – 150 ballik tizim;

**O‘zbekistonda qayerda topshirish mumkin:** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Davlat Test markazi, Chet tillarni bilish va egallash darajasini baholash boshqarmasida; **Manzil:** 100084, Toshkent shahri, Bog‘ishamol ko‘chasi, 12-uy; **Telefon:** (+998 71) 235-74-85; **Faks:** (+998 71) 234-71-84; **elektron pochta:** [naf1@dtm.uz](mailto:naf1@dtm.uz); **Rasmiy sayt:** <https://nsfla.uz/>.

## **CEFR imtihoni bo‘limlari**

Chet tilini bilish darajasi testi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 31-dekabrda 352-son qarori bilan tasdiqlangan “Chet tilini bilish darajasini aniqlash va malaka sertifikatini berish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom asosida o‘tkaziladi.

## **CEFR taqdim etadigan imtiyozlar:**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Xalq ta‘limi vazirligi bilan birgalikda chet tilini bilish darajasini baholashning milliy test tizimini keng qo‘llagan holda **2018-yil 1-yanvardan** boshlab malaka sertifikatiga ega bo‘lgan talabgorlarga sertifikatni olgandan boshlab 3 yilgacha quyidagi imtiyozlar berish tartibini joriy etgan:

- chet tilini bilish darajasi to‘g‘risidagi davlat namunasidagi **B1** va undan yuqori darajadagi malaka sertifikatga ega bo‘lgan abituriyentlarga oliy ta‘lim muassasalari bakalavriatining kirish test sinovlari majmuasiga chet tili (ingliz, nemis, fransuz) fani kiritilgan yo‘nalishlarda chet tili fanidan belgilangan maksimal ball berish va ularni chet tili fanidan test sinovidan ozod etish;
- chet tilini bilish darajasi to‘g‘risidagi davlat namunasidagi **B2** va undan yuqori darajadagi malaka sertifikatga ega bo‘lgan abituriyentlarga oliy ta‘lim muassasalari magistraturasining kirish test sinovlari majmuasiga chet tili (ingliz, nemis, fransuz) fani kiritilgan yo‘nalishlarda chet tili fanidan belgilangan maksimal ball berish va ularni chet tili fanidan test sinovidan ozod etish.

Test quyidagi bo‘limlardan iborat:

- **Tinglab tushunish bo‘limi:** eshitilgan audiomatnlarning asosiy mazmunini va detallarini tushunish ko‘nikmalarini tekshiradi;
- **O‘qib tushunish bo‘limi:** har xil janrlardagi autentik matnlarning asosiy mazmunini va detallarini tushunish ko‘nikmalarini tekshiradi;
- **Leksik va grammatik kompetensiyalar bo‘limi:** leksik va grammatik birliklarni kontekstda to‘g‘ri qo‘llay olish ko‘nikmalarini tekshiradi;

- **Yozish bo‘limi:** berilgan vaziyat yoki mavzu asosida, topshirilayotgan darajaga mos leksika va grammatikani qo‘llagan holda yaxlit matn tuza olish ko‘nikmalarini tekshiradi;
  - **Gapirish bo‘limi:** savollarga javob bera olish, og‘zaki taqdimot qila olish, muammoga nisbatan o‘z fikrini bildirib asoslab bera olish ko‘nikmalarini tekshiradi.
- Testning yozma qismi (tinglab tushunish, o‘qib tushunish, leksik va grammatik kompetensiyalar, yozish bo‘limlari) bir kunda, gapirish bo‘limi alohida o‘tkaziladi.

### **Baholash**

Har bir bo‘limda maksimal ball **30 ballni** tashkil qiladi. Jami maksimal ball: **150 ball**. Testdan muvaffaqiyatli o‘tish uchun maksimal ballga nisbatan **60% yoki undan yuqori** yig‘ish kerak.

### **Darajalari**

- **A1**—Beginner/Starter;
- **A2**—Elementary;
- **B1**—Intermediate;
- **B2**—Upper-Intermediate;
- **C1**—Advanced;
- **C2**—Proficiency.

Universitetga imtihon topshirish uchun odatda B1, B2, C1 darajalari yetarli hisoblanadi.

### **Ro‘yxatdan o‘tish tartibi**

Chet tilini bilish va egallash darajasi bo‘yicha malaka sertifikatini olish uchun imtihonga ro‘yxatdan o‘tish tartibi:

1. On-line arizani to‘ldiring. To‘ldirilgan arizangizning pdf formatdagi nusxasi arizada ko‘rsatgan elektron pochtagizga yuboriladi.
2. Elektron pochtagizdan pdf formatdagi arizangiz nusxasini yuklab oling va printerdan chiqaring.
3. Istalgan bank bo‘limidan DTM hisob raqamiga eng kam ish haqining 1.5 baravari miqdorida to‘lovni to‘lang.
4. Quyidagi hujjatlarni DTMga pochta orqali yuboring yoki shaxsan olib keling:
  5. – To‘ldirilgan ariza nusxasi (pdf formatda pochtagizga yuborilgan arizani chiqaring);
  6. – Eng kam ish haqining 1.5 baravari miqdorida to‘lovni to‘laganligingiz haqida kvitansiya nusxasi yoki to‘lov topshiriqnomasi;
  7. – Pasportingiz nusxasi;
  8. – 3.5 \* 4.5 o‘lchamdagi fotosuratingiz (1 dona). *Rasm hujjat talablariga mos kelishi kerak;*
  9. – 3.5 \* 4.5 o‘lchamdagi fotosuratingizning CD diskga yozilgan elektron nusxasi;
10. hujjatlar uchun jild.

\*Imtihon tartibi haqida batafsil: **SHU YERDA** tanishing.

### **Test sinovlari formati**

#### **B1 darajasi**

B1 darajadagi talabgor:

- ommabop tanish mavzularidagi matnlarni muayyan ma‘lumotlar olish uchun o‘qib, tushuna oladi;
- shaxsiy hayot mavzularida qaydlar va xabarlarini yoza oladi;
- shaxsiy qiziqishlar, kundalik hayot mavzularida suhbat qiladi;
- ommabop masalalar bo‘yicha ma‘lumot bera oladi va fikrini bildiradi.

**Vaqt:** B1 daraja imtihoni **3 soat 5 daqiqa** davom etadi va quyidagi bo‘limlardan iborat:

**1-bo‘lim:** *Tinglab tushunish (30-35 daqiqa/4 qism/30 savol)*

**2-bo‘lim:** *O‘qish (70 daqiqa/4 qism/30 savol)*

**3-bo‘lim:** *Leksik va grammatik kompetensiyalar (30 daqiqa/3 qism/30 savol)*

**4-bo‘lim:** *Yozish (45 daqiqa/2 topshiriq/30 ball)*

**5-bo‘lim:** *Gapirish (15 daqiqa/3 qism/30 ball)*

**Tinglab tushunish.** Tinglab tushunish bo‘limining maqsadi nomzodning chet tilidagi ommabop tanish mavzularidagi monologik va dialogik nutqning asosiy ma‘nolarini tushuna olishini va so‘ralgan ma‘lumotni topa olish ko‘nikmalarini tekshirishdir. Tinglab tushunish bo‘limi 4 qismdan iborat. Tinglab tushunish bo‘limi mazmuni quyidagicha tuziladi:

**1-bo‘lim: Tinglab tushunish (30-35 daqiqa/4 qism/30 savol)**

Tinglab tushunish bo‘limida har bir matn ikki martadan eshittiriladi va matn eshittirilishidan oldin tinglab tushunish bo‘limi o‘yicha yo‘riqnoma va shundan so‘ng har bir topshiriqni bajarishdan oldin matnga oid savollar bilan tanishib chiqish uchun 30 soniya vaqt beriladi.

**1-qism (1-10 savollar)**

*Matn turi:* ommabop tanish mavzularda 10 ta qisqa monologlar.

*Tekshiriladigan ko‘nikmalar:* aniq normativ nutqning asosiy ma‘nolarini tushunish.

*Savollar turi:* yopiq test.

**2-qism (11-16 savollar)**

*Matn turi:* ommabop tanish mavzularda dialog.

*Tekshiriladigan ko'nikmalar:* muayyan ma'lumotlar olish uchun tushunish va ma'lumotlarni to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlay olish.

*Savollar turi:* yopiq test.

### **3-qism (17-22 savollar)**

*Matn turi:* shaxsiy qiziqish va kasb-hunarga oid intervyular.

*Tekshiriladigan ko'nikmalar:* muayyan ma'lumotlar olish uchun tushunish.

*Savollar turi:* yopiq test.

### **4-qism (23-30 savollar)**

*Matn turi:* monolog-prezentatsiya, chiqish;

*Tekshiriladigan ko'nikmalar:* dolzarb mavzulardagi tele-radio yangiliklar, shaxsiy qiziqish va kasb-hunarga oid sodda dasturlar.

*Savollar turi:* yopiq test.

## **2-bo'lim: O'qish (70 daqiqa/ 4 qism/30 savol)**

### **1-qism (1-5 savollar)**

*Matn turi:* chet tili muhitida kundalik hayotda uchraydigan qisqa matnlar: e'lon, reklama, asbob-uskunalar va qurilmalarni ishlatish bo'yicha yozma yo'riqnomalardan parcha, xatlar, elektron xatlardan parcha, gazeta va internet matnlardan parcha.

*Tekshiriladigan ko'nikmalar:* chet tilidagi materiallarning umumiy mazmunini tushunish.

*Savollar turi:* yopiq test.

### **2-qism (6-12 savollar)**

*Matn turi:* ommabop materiallar – gazeta, jurnal, internet maqolalari.

*Tekshiriladigan ko'nikmalar:* gazeta va internet matnlarida tegishli ma'lumotni va fikrlarni tushunish.

*Savollar turi:* yopiq test: to'g'ri/noto'g'ri/berilmagan.

### **3-qism (13-20 savollar)**

*Matn turi:* ommabop materiallar – qisqa hikoya.

*Tekshiriladigan ko'nikmalar:* ommabop matnlar yoki badiiy asarlardagi asosiy fikrni tushunish.

*Savollar turi:* yopiq test (savol va 4 ta javob varianti).

### **4-qism (21-30 savollar)**

*Matn turi:* ommabop materiallar – ensiklopediya yoki internet manbalaridan olingan matn.

*Tekshiriladigan ko'nikmalar:* matndagi asosiy fikrni tushunish.

*Savollar turi:* yopiq test

## **3-bo'lim: Leksik va grammatik kompetensiyalar (30 daqiqa/3 qism/30 savol)**

### **1-qism (1-10 savollar)**

*Matn turi:* ommabop matn.

*Tekshiriladigan ko'nikmalar:* leksik birliklarni berilgan kontekstda to'g'ri ishlata olish matnda noto'g'ri ishlatilgan leksik va/yoki grammatik birliklarni to'g'ri qo'llay olish.

*Savollar turi:* yopiq test (tushirilib qoldirilgan so'zni berilgan 4 muqobil variantdan tanlash).

### **2-qism (11-20 savollar)**

*Matn turi:* ommabop matn.

*Tekshiriladigan ko'nikmalar:* so'z turkumlarning turli morfologik shakllarini to'g'ri qo'llay olish, leksik birliklarni berilgan kontekstda to'g'ri ishlata olish.

*Savollar turi:* gapdagi xatoni topish (4 muqobil variantdan to'g'risini tanlash, xato yo'q bo'lgan taqdirda D tanlanadi)

### **3-qism (21-30 savollar)**

*Matn turi:* ommabop matn.

*Tekshiriladigan ko'nikmalar:* o'zakdosh so'zlarning turli morfologik shakllarini to'g'ri qo'llay olish, leksik birliklarni berilgan kontekstda to'g'ri ishlata olish.

*Savollar turi:* yopiq test (4 muqobil variantdan matn mazmuniga mos keluvchi o'zakdosh so'zni tanlash).

## **4-bo'lim: Yozish (45 daqiqa/2 topshiriq)**

Yozma nutq bo'limining maqsadi nomzodning fikrini chet tilida yozma ravishda to'g'ri va ravon ifodalay olish qobiliyatini tekshirishdir.

1-topshiriq: shaxsiy yozishmalar. Nomzod berilgan mavzu va tayanch savollar asosida xat yozishi lozim (60-80 so'z/10 ball). Mavzuda muammo ko'tariladi va xatda nomzodning ushbu muammo yuzasidan nuqtai nazarini bildirishi so'raladi.

2-topshiriq: shaxsiy tajribaga asoslangan insho yozish (120-140 so'z/20 ball). Nomzod tayanch savollar asosida berilgan mavzuda qisqa insho yozishi kerak.

## **5-bo'lim: Gapirish (15 daqiqa/3 qism/30 ball)**

Og'zaki nutq bo'limining maqsadi nomzodning fikrini chet tilida og'zaki tarzda B1 daraja talablariga mos tarzda to'g'ri va ravon ifodalay olish qobiliyatini tekshirishdir.

### **1-qism**

Suhbat tarzida talabgorga kundalik mavzularda, shaxsiy hayotiga oid savollar beriladi va talabgor berilgan savollarga tayyorgarliksiz javob bera olishi talab etiladi. Ushbu qism bo'yicha suhbat davomiyligi o'rtacha 4 daqiqa.

### **2-qism**

Talabgordan berilgan muammoli vaziyat asosida 2 daqiqali monolog tuzishi talab qilinadi. Talabgor nutqi davomida muammoga o'z yondashuvi (muammoga yechim)ni ifodalashi kerak. Savollar nomzodning shaxsiy hayotiga oid mavzular doirasidan olinadi.

Talabgorga tayyorgarlik uchun 1 daqiqa vaqt beriladi.

### **3-qism**

Talabgorga 2-qism (monolog) mavzusidan kelib chiqqan holda qo'shimcha savollar beriladi. Talabgorga tayyorgarlik uchun vaqt berilmaydi.

## **B2 darajasi**

B2 darajadagi nomzod:

- mavhum va konkret mavzulardagi murakkab matnlarni, shu jumladan mutaxassislikka oid matnlarni tushuna oladi;
- tayyorgarliksiz ravon gapira oladi;
- xorijiyilar bilan muloqot qilish jarayonida ikkala tomon uchun ham qiyinchilik tug'dirmaydigan darajada tez gaplashadi;
- turli mavzularda aniq, batafsil xabarlar tuza oladi;
- muammoga o'z fikrini bildirib, turli fikrlarning afzalliklari va kamchiliklarini ko'rsata oladi.

**Vaqt:** B2 daraja imtihoni **3 soat 35 daqiqa** davom etadi va quyidagi bo'limlardan iborat:

**1-bo'lim:** Tinglab tushunish (taxminan 35 daqiqa/4 qism/30 savol)

**2-bo'lim:** O'qish (1 soat/3 qism/30 savol)

**3-bo'lim:** Leksik va grammatik kompetensiyalar (40 daqiqa/3 qism/30 savol)

**4-bo'lim:** Yozish (1 soat/2 topshiriq)

**5-bo'lim:** Gapirish (15 daqiqa/3 qism/30 ball)

**1-bo'lim:** Tinglab tushunish (taxminan 35 daqiqa/4 qism/30 savol)

Tinglab tushunish bo'limida har bir matn ikki martadan eshittiriladi va matn eshittirilishidan oldin matnga tegishli savollar bilan tanishib chiqish uchun 30 soniya vaqt beriladi.

### **1-qism (6 savol)**

*Matn turi:* bir-biriga bog'liq bo'lmagan qisqa dialoglar, e'lon va xabarlar, radio va tele-reportajlardan parchalar.

*Tekshiriladigan ko'nikmalar:* umumiy mazmuni tushunish uchun tinglash.

*Savollar turi:* yopiq test.

### **2-qism (8 savol)**

*Matn turi:* dialog(ijtimoiy mavzulrdagi muloqot)

*Tekshiriladigan ko'nikmalar:* ayrim ma'lumotlarni olish va tafsilotlarni tushunish uchun tinglash.

*Savollar turi:* yopiq test.

### **3-qism (8 savol)**

*Matn turi:* radio- va tele – reportajlar, intervyular.

*Tekshiriladigan ko'nikmalar:* radio, internet va televideniye dasturlari, intervyularning aksariyat qismini tushunish.

*Savollar turi:* yopiq test.

### **4-qism (8 savol)**

*Matn turi:* ma'ruzalar, bayonotlar, taqdimotlar, munozaralar hamda ilmiy va ixtisoslikka oid boshqa turdagi nutqlar.

*Tekshiriladigan ko'nikmalar:* keng kolamli nutq va murakkab fikrlar bayonini kuzatib tushunish, ilmiy va ixtisoslik taqdimotlari mohiyatini tushunish.

*Savollar turi:* yopiq test.

**2-bo'lim:** O'qish (1 soat/3 qism/30 savol)

### **1-qism (10 savol)**

*Matn turi:* zamonaviy badiiy matndan parcha (matn hajmi – taxminan 800 so'z).

*Tekshiriladigan ko'nikmalar:* chet tilidagi autentik matnning tafsilotlarini tushunish.

*Savollar turi:* yopiq test.

### **2-qism (10 savol)**

*Matn turi:* murakkab ommabop materiallar – gazeta, jurnal, Internet maqolalari (matn hajmi – taxminan 800 so'z).

*Tekshiriladigan ko'nikmalar:* kattaroq hajmdagi maqolalardan tegishli ma'lumotlarni ajrata olish.

*Savollar turi:* yopiq test; gapni tugallash.

### **3-qism (10 savol)**

*Matn turi:* murakkab ilmiy-ommabop materiallar – kasbiy sohalarga oid kattaroq hajmdagi maqola va maʼruzalar (matn hajmi – taxminan 800 soʻz).

*Tekshiriladigan koʻnikmalar:* chet tilidagi murakkab matnlarning tafsilotlarini tushunish va tegishli matnlarni ajrata olish, tanish va notanish mavzulardagi matnlarning ayrim jihatlarini tushunish.

*Savollar turi:* yopiq test (toʻgʻri/notoʻgʻri/berilmagan); moslashtirish.

**3-boʻlim:** Leksik va grammatik kompetensiyalar (40 daqiqa/3 qism/30 savol)

#### **1-qism (10 savol)**

*Matn turi:* ommabop matn (matn hajmi – taxminan 200 soʻz).

*Tekshiriladigan koʻnikmalar:* leksik birliklarni (polisemik soʻzlar va sinonimlarni) berilgan kontekstda toʻgʻri qoʻllay olish.

*Savollar turi:* yopiq test.

#### **2-qism (10 savol)**

*Matn turi:* ilmiy matn (matn hajmi – taxminan 100 soʻz).

*Tekshiriladigan koʻnikmalar:* murakkab sintaktik strukturalarni toʻgʻri qoʻllay olish.

*Savollar turi:* grammatik xatolarni topish.

#### **3-qism (10 savol)**

*Matn turi:* badiiy matn (matn hajmi – taxminan 150 soʻz).

*Tekshiriladigan koʻnikmalar:* soʻz turkumlarining turli morfologik shakllarini va leksik birliklarni berilgan kontekstda toʻgʻri ishlatish olish.

*Savollar turi:* yopiq test (tushirib qoldirilgan soʻzlarni qoʻyish).

#### **4-boʻlim: Yozish (1 soat/2 topshiriq)**

1-topshiriq: berilgan vaziyat va tayanch savollar asosida rasmiy xat yozish (150 soʻz/10 ball).

2-topshiriq: berilgan muammoli mavzu yuzasidan esse yozish (250 soʻz/20 ball).

#### **5-boʻlim: Gapirish (15 daqiqa/3 qism/30 ball)**

**1-qism:** kundalik va mavhum mavzularda savol-javob.

**2-qism:** berilgan mavzu boʻyicha taqdimot qilish, fikr bildirish va asoslash.

**3-qism:** maqolani umumlashtirish, xulosa qilish, berilgan mavzuga oid qarash yoki fikrlarni rivojlantirish, misollar keltirish orqali dalillash. ([Yuklab olish](#))

### **C1 darajasi**

C1 darajadagi nomzod:

- katta hajmdagi murakkab matnlarni ochiq aytilmagan maʼnolarigacha tushuna oladi.
- tayyorgarliksiz tez gapira oladi va fikrini ifodalash uchun soʻz tanlashda qiyinchilik sezmaydi.
- tilni ijtimoiy, ilmiy va professional muloqot uchun samarali ishlata oladi.
- xorijiyilar bilan muloqot qilish jarayonida ikkala tomon uchun ham qiyinchilik tugʻdirmaydigan darajada tez gaplashadi.
- turli mavzularda aniq, batafsil xabarlar tuza oladi.
- murakkab mavzularda aniq, yaxshi strukturalangan matnlar tuza oladi.

**Vaqt:** C1 daraja imtihoni **3 soat 50 daqiqa** davom etadi va quyidagi boʻlimlardan iborat:

**1-boʻlim:** Tinglab tushunish (taxminan 30 daqiqa/3 qism/30 savol)

**2-boʻlim:** Oʻqish (1 soat/3 qism/30 savol)

**3-boʻlim:** Leksik va grammatik kompetensiyalar (40 daqiqa/2 qism/30 savol)

**4-boʻlim:** Yozish (1 soat 20 daqiqa/3 topshiriq)

**5-boʻlim:** Gapirish (20 daqiqa/3 qism/30 ball)

**1-boʻlim:** Tinglab tushunish (taxminan 30 daqiqa/3 qism/30 savol)

Tinglab tushunish boʻlimida har bir matn bir marta eshittiriladi va matn eshittirilishidan oldin matnga tegishli savollar bilan tanishib chiqish uchun 1 daqiqa vaqt beriladi.

#### **1-qism (10 savol)**

*Matn turi:* radio- va tele – reportajlar, intervyular.

*Tekshiriladigan koʻnikmalar:* keng qamrovli, tilning ayrim nostandart ishlatilish holatlarini ham oʻz ichiga olgan audio tasma va axborot materiallarini tushunish.

*Savollar turi:* yopiq test.

#### **2-qism (10 savol)**

*Matn turi:* audiokitoblar yoki asarlar radiopostanovkalaridan parchalar.

*Tekshiriladigan koʻnikmalar:* keng koʻlamli nutqlarni aniq tuzilmagan hollarida ham tushunish va ulardagi ochiq-oydin va yashirin fikrlarni ham yetarli darajada angʻlay olish.

*Savollar turi:* yopiq test.

#### **3-qism (10 savol)**

*Matn turi:* maʼruzalar, bayonotlar, taqdimotlar, munozaralar hamda ilmiy va ixtisoslikka oid boshqa turdagi nutqlar.

*Tekshiriladigan koʻnikmalar:* oʻz mutaxassislik sohasiga oid bolmagan abstrakt va murakkab mavzulardagi keng koʻlamli nutqlarni tushunish.

*Savollar turi:* yopiq test.

## **2-boʻlim: Oʻqish (1 soat/3 qism/30 savol)**

### **1-qism (10 savol)**

*Matn turi:* zamonaviy badiiy matndan parcha (matn hajmi – taxminan 1000 soʻz).

*Tekshiriladigan koʻnikmalar:* kichik detallarning ham muhim jihatlari, qarashlar, ochiq-oydin yoki birmuncha yashirin bayon etilgan fikrlarni tushuna olish.

*Savollar turi:* yopiq test.

### **2-qism (10 savol)**

*Matn turi:* murakkab ommabop materiallar – gazeta, jurnal, Internet maqolalari (matn hajmi – taxminan 1000 soʻz).

*Tekshiriladigan koʻnikmalar:* oʻz mutaxassislik sohasiga oid yoki oid boʻlmagan keng koʻlamli birmuncha uzun va murakkab matnlarni tushuna olish.

*Savollar turi:* tushirib qoldirilgan gaplar bilan matnni toʻldirish.

### **3-qism (10 savol)**

*Matn turi:* akademik matnlardan parcha (matn hajmi – taxminan 1000 soʻz).

*Tekshiriladigan koʻnikmalar:* oʻz mutaxassislik sohasiga oid yoki oid boʻlmagan keng koʻlamli birmuncha uzun va murakkab matnlarni tushuna olish.

*Savollar turi:* yopiq test (toʻgʻri/notoʻgʻri/berilmagan); moslashtirish.

## **3-boʻlim: Leksik va grammatik kompetensiyalar (40 daqiqa/3 qism/30 savol)**

### **1-qism (15 savol)**

*Matn turi:* ommabop matn (matn hajmi – taxminan 300 soʻz).

*Tekshiriladigan koʻnikmalar:* leksik birliklarni (polisemik soʻzlar va sinonimlarni) berilgan kontekstda toʻgʻri qoʻllay olish.

*Savollar turi:* yopiq test.

### **2-qism (10 savol)**

*Matn turi:* ilmiy matn (matn hajmi – taxminan 250 soʻz).

*Tekshiriladigan koʻnikmalar:* murakkab sintaktik strukturalarni toʻgʻri qoʻllay olish.

*Savollar turi:* grammatik xatolar bor-yoʻqligini aniqlash.

### **4-boʻlim: Yozish (1 soat 30 daqiqa/3 topshiriq)**

1-topshiriq: berilgan vaziyat va tayanch maʼlumotlar asosida rasmiy xat yozish (150 soʻz/10 ball).

2-topshiriq: berilgan mavzu yuzasidan esse yozish (250 soʻz/10 ball).

3-topshiriq: berilgan matnning qisqacha mazmunini yozish (100 soʻz/10 ball).

### **5-boʻlim: Gapirish (20 daqiqa/3 qism/30 ball)**

**1-qism:** kundalik va mavhum mavzularda savol-javob.

**2-qism:** berilgan mavzu boʻyicha taqdimot qilish, fikr bildirish va asoslash.

**3-qism:** berilgan mavzu boʻyicha taqdimot qilish, fikr bildirish va misollar keltirish orqali dalillash.

## **Imtihon javoblari**

Test sinovlari natijalari ular oʻtkazilgan kundan boshlab ikki haftadan kechikmay Davlat test markazi saytida eʼlon qilinadi.

2. Test sinovi natijasida maksimal ballning 60% dan kam toʻplagan talabgorlarga malaka sertifikatini berilmaydi va toʻlangan badal qaytarilmaydi.
3. Test sinovi yakunlari boʻyicha eng yuqori ballning 60 foizidan kam ball olgan talabgor test sinovida qatnashish uchun, lekin test sinovi natijalari eʼlon qilingan kundan boshlab kamida bir oydan keyin, chet tilini bilish darajasini aniqlash va Sertifikat berish uchun toʻlov toʻlangan taqdirda, hujjatlarni takroran taqdim etish huquqiga ega.
4. Ijobiy baholangan talabgorlar malaka sertifikatini shaxsan yoki notarial tasdiqlangan ishonchnoma orqali Davlat test markazidan ish kunlari soat 9:00 dan 18:00 ga qadar olib ketishlari mumkin.

## **CEFR va boshqa til imtihon darajalarining mosligi**



TOEFL	IELTS	TOEIC	Cambridge exam	CEFR Level	Skill level
					HigherEd me
118-120	9		CPE	C2	Mastery or proficiency
<b>115-117</b>	<b>8.5</b>		<b>CPE</b>	<b>C2</b>	
110-114	8	975-990	CAE / CPE	C2/C1	
102-109	7.5	966-974	CAE	C1	Effective operational proficiency
<b>94-101</b>	<b>7</b>	<b>945-965</b>	<b>CAE</b>	<b>C1</b>	
79-93	6.5	900-960	FCE	C1/B2	
<b>65-78</b>	<b>5.5-6.0</b>	<b>785-940</b>	<b>FCE</b>	<b>B2</b>	Vantage or upper intermediate
53-64	4.5-5	785-795	FCE	B2/B1	Threshold or intermediate
41-52	4	670-780	PET	B1	
<b>35-40</b>	<b>3.5</b>	<b>550-665</b>	<b>PET</b>	<b>B1</b>	
<b>30-34</b>	<b>3</b>	<b>225-545</b>	<b>KET</b>	<b>A2</b>	Waystage or elementary
19-29	2.0-2.5	171 -220		A1	Breakthrough or beginner
<b>0-18</b>	<b>1.0 - 1.5</b>	<b>120 -170</b>		<b>A1</b>	

### Imtihonga tayyorlanish uchun

- Common European Framework of Reference for Languages: Teaching, Learning and Assessment. CambridgeUniversity Press. GRAMMAR AND VOCABULARY: Michael Swan. Practical English Usage. 3rd ed. OxfordUniversity Press, 2009. Luke Prodromou. Grammar and Vocabulary for First Certificate. Pearson Education Limited, 1999. Richard Side, Guy Wellman. Grammar and Vocabulary for Cambridge Advanced and Proficiency. Pearson Education Limited, 1999.

#### LISTENING:

- Jack Richards. Expanding Tactics for Listening. 2nd ed. OxfordUniversity Press, 2005.
- Steven Brown, Dorolyn Smith. Active Listening. CambridgeUniversity Press, 2005.

#### READING:

- D'Arcy Adrian-Vallance, Lewis Lansford. Pearson Education, 2005.
- Kent Richmond. Inside Reading: the Academic Word List in Context. OxfordUniversity Press, 2009.

#### WRITING:

- Malcolm Mann, Steve Taylore-Knowles. Skills For First Certificate: Writing. Macmillan Education, 2005.
- Richard Brown, Lewis Richards. IELTS Advantage: Writing Skills. Delta Publishing, 2005.
- Alice Oshima, Ann Hogue. Introduction to Academic Writing. 3rd ed. Pearson Education, 2007.
- Dorothy Zemach, Lisa Rumisek. Academic Writing: From Paragraph to Essay. Macmillan Education, 2005.

#### SPEAKING:

- Cheryl Pelteret. Collins English for Life: Speaking. HarperCollins Publishers, 2009.
- Karen Covacs. Collins English for Exams: Speaking for IELTS. HarperCollins Publishers, 2011.